

TANQIDIY FIKRLASHNING TIL O'RGANISHDAGI O'RNI

Jo'rayeva Zuhra Kamoliddin qizi
Chirchiq Davlat pedagogika universiteti
magistratura talabasi 2-kurs

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10663050>

Annotatsiya: Ushbu maqolada tanqidiy fikrlashning til o'rganishdagi o'rni, xorijiy mamlakatlar tilida so'zlashishda tafakkur, tanqidiy va ijodiy fikrlashning ahamiyati haqida so'z yuritiladi

Kalit so'zlar: tanqidiy fikrlash, muloqot, tahlil, tafakkur, "vaziyat va yechim"

Kirish

Amerikalik psixolog, o'qituvchi, bir vaqtning o'zida Amerika psixologlar uyushmasining prezidenti, bir nechta muvaffaqiyatli kitoblarning muallifi, "Tanqidiy fikrlash va aql psixologiyasi", "Bilim va bilmaslik" mavzularidagi ilmiy ishlar muallifi Diane Xolperning "Tanqidiy fikrlash psixologiyasi" deb nomlangan kitobida tanqidiy fikrlashning ta'lim jarayonidagi o'rniga berilgan alohida e'tiborini ko'rish mumkin. Bundan tashqari u o'zining benazir asarlarida tanqidiy fikrlash va ijodiy fikrlash tezroq va samaraliroq ta'lim olishni ta'minlashi haqida fikr yuritadi. Shuning bilan birga qiyin holatlar va masalalar vaqtida tanqidiy fikrlash orqali masalaning boshqa tomonlardan yechimini topish mumkinligi va bu boshqa fanlarga targ'ib qilinganda ham o'z tasdig'ini topganligi haqida misollar keltirib o'tadi. Bundan ko'rinadiki aynan ijodiy va tanqidiy fikrlash orqali boshqa fanlarni yaxshi o'zlashtirish, kerakli ma'lumotlarni eslab qolish va ma'lum bir ma'lumotlarni to'g'ri tahlil qilib, tushuna olish kabi imkoniyatlarga erishish mumkin ekan. Shu sababli ham xorijiy tillarni aynan tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi qo'llanmalar asosida o'rganish ancha samarali bo'ladi va kutiganidek natija ham beradi deb ayta olamiz.

Asosiy qism

Tillarga tanqidiy fikrlashni olib kirishning asl sababi shundan iboratki, so'zlar va iboralarning ishlatilish jihatidan to'g'ri tushunilganligi bu so'zlarni ma'nosiga ko'ra boshqa bir vaqtda va boshqa gaplarda ham ishlatishdek qimmatli imkoniyatni beradi. Ya'ni muloqot davrida bizning miyamiz axborotlarni qabul qiladi, sintezlaydi, tahlil qiladi va ushbu jarayonlarga javoban tafakkur qilib, so'z boyligidan foydalangan holda o'z tahlillarini taqdim etadi. Ya'ni biz xorijiy mamlakatlar tilida so'zlashish uchun ham tafakkur qilib, tanqidiy va ijodiy fikrlar ekanmiz.

Tanqidiy-ijodiy fikrlash deganda inson hayoliga bevosita fikr va til keladi. Fikrlarni to'g'ri tushunib yetish uchun ham til orqali yetkazilayotgan fikrlarni avvalo tahlil qilish kerak va fikr-mulohazalarni doimo to'g'ri ifoda etish kerak. Chunki, insonlar ba'zi vaqtlarda o'z fikrlarini ham tahlil qilolmaydilar. William Hughes va Jonathan Laverylar bu borada "Fikrlarni tushunish uchun fikrlash va til o'rtasidagi munosabatlarga ehtiyotkorlik bilan e'tibor qaratish kerak, chunki munosabatlar sodda ko'rinadi, ammo, ko'p hollarda odamlar o'z so'zlarining ma'nosini tushunishmaydi. Sababi shundaki, biz fikrlarni ifoda etish uchun emas, balki ularni shakllantirish uchun so'zlarni ishlatamiz. Demak xorijiy tillarda shunchaki gapirish uchun so'zlardan foydalanish emas, avvalo tahlil etib so'ngra o'z fikrlarimizni bayon etishimiz kerak bo'lar ekan. Tanqidiy fikrlashni boshlagan o'rganuvchi xorijiy tillarni o'rganish vaqtida fikrlarni bayon etishning yozma usulidan foydalanadi. Xorijiy tillarda yozilgan, ma'lum bir mavzuga tegishli bo'lgan fikrlarni o'rganilayotgan tilda tafakkur etib, uni yozuvda ifoda etish

haqida Jon C. Bean izlanishlarining birida: “Biz o’quvchilarning yozib olish ko’nikmalarini hosil qilishda ularning o’z fikrlari bilan kurashamiz, yozma va tanqidiy fikrlashni ta’kidlaymiz va ko’p hollarda fikrlash tarbiyasi inson intellektual kuchining o’sishi bilan bog’liq bo’lgan yozma kurash odatda o’quvchilar ta’limining haqiqiy xususiyatiga aylanadi”, deya xabar beradi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi metodlar “Demokratik ta’lim uchun” konsorsiumi tomonidan amalga oshiriladigan “Tanqidiy fikrlash uchun o’qish va yozish” loyihasi asosida ishlab chiqilgan. Ushbu loyiha asosida juda ko’p izlanishlar olib borildi va buning natijasida endilikda Amerika Qo’shma Shtatlarida Critical thinking – tanqidiy fikrlashning darajasi ikkinchi o’ringa ko’tarildi. Ma’lumotlar shuni ko’rsatadiki, tanqidiy va ijodiy fikrlash turli xil sohalarga joriy etilmoqda. Jumladan, Turizm yo’nalishi bo’yicha ham tanqidiy-ijodiy fikrlovchi kadrlarni tarbiyalash maqsadida I.S.Tuxliyev va B.SH.Safarovlarga tegishli “Turizm asoslari” o’quv qo’llanmasiga tanqidiy fikrlash va tahlil qilishga oid bobning joylashtirilgani ushbu fikrlarimizga yaqqol dalil bo’la oladi. Xorijiy tillarda yozilgan shaxsiy va ma’lum bir mavzuga tegishli bo’lgan fikrlarni o’rganilayotgan tilda tafakkur etish dastlab murakkabroq bo’lganligi sababli ham uni yozish metodidan foydalanib ifoda etish barchaga qulay bo’ladi. Bu borada ko’pgina psixolog va filosof olimlarning o’z qarashlari mavjud bo’lib, bir nechta jiddiy izlanish ishlari olib borilgan. Chet tillarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun bir nechta metodlar mavjud bo’lib, ulardan eng samaralisi boshqotirma va interaktiv o’yinlardan foydalanishdir. Ulardan eng mashhuri klaster usuli bo’lib, unda berilgan yagona masalaning har tomonlama aloqador jihatlari ko’rib chiqiladi. Olingan ma’lumotlarni tizimlashtirishda va hodisalar o’rtasidagi aloqani o’rnatishda ushbu texnikadan foydalanish o’rinlidir. Yoki bo’lmasa o’sha biz yoshlikdanoq bilgan “Baliq suyagi” usulida o’quvchi mavjud muammoni baliqning boshiga qiyos qilib, har bir qarama-qarshi tarafdagi suyaklarga “vaziyat va yechim” tarzda baho berib keta oladi, hamda bu vaziyatdan chiqilganlik baliqning dum suzgichlari hisobida ko’riladi. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning eng samarali usuli bu “6 ta shlyapa” bo’lib, unda ranglar jarayonlarga qiyoslanadi va har bir rangdagi jarayonga va xususiyatga xos tarzda vaziyat beriladi. Vaziyatni turli ko’rinishda, ham salbiy, ham ijobiy tomonlama yaqqol ko’rishning yana bir yo’li aynan shu usulda ko’rinadi.

Xulosa

Xorijiy tillarni o’rganishda hech qanday muammoga duch kelmaslik va har qanday vaziyatlardan ham oqilona chiqib keta olish uchun tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish yosh izlanuvchilarga ham shaxsiy tomonlama, ham ilm tomonlama ko’makchi bo’la oladigan omil ekanligini ta’kidlay olamiz. Demak, xorijiy tillar orqali nafaqat bir tilni balkim o’sha til qabul qilingan mamlakatning madaniyati va tarixi, ma’naviyati va urf-odatlarini, imkoniyatlari va xalqiga xos urf-odatlarini o’rganish mumkin. O’rganish jarayonida fikrlarni tahlilini to’g’ri qo’ya bilish maqsadni to’g’ri qo’yishni yuzaga keltiradi. Aynan yuqorida ko’tarilgan argumentlarga ko’ra ijodiy-tanqidiy fikrlashning xorijiy tillarni o’rganishdagi o’rni yuqori deb baholasak adashmagan bo’lamiz.

References:

1. Abduqahhor G’aniyevning “Tanqidiy fikrlash nima va uni qanday o’rganish mumkin?”, Ma’rifat gazetasi, 2020.11.11, 43-soni. Baxtiyor.uz. sayti.
2. Amerikalik psixolog - Diane Xolper, “Tanqidiy fikrlash psixologiyasi” kitobi.

3. William Hughes va Jonathan Lavery, Tanqidiy fikrlash: asosiy ko'nikmalarga kirish, 4-nashr Broadview, 2004.
4. Jon C. Bean, "Fikrlarni jalb qilish : Professorning yozma, tanqidiy fikrlash va sinab ko'rishda faol o'rganish bo'yicha qo'llanma, 2-son, Wiley, 2011."

INNOVATIVE
ACADEMY